

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent – 2023

VED QYMT
21 08 367 23

ISHLAB CHIQLIGAN:

- Toshkent davlat yuridik universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «_____» _____ dagi _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi.....	4
1.2.1.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari.....	5
1.2.3.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar....	9
2.3.3.	60420100 – <i>Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, sirtqi va masofaviy ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi va masofaviy ta'lim shakllari bo'yicha bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilari, "huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash" soha mutaxassisligi hamda 60420100 – *Yurisprudensiya (Tergov faoliyati)* soha mutaxassisligi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakli bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil. Sirtqi ta'lim ta'lim shakli bo'yicha bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 5 yil.

Nazariy va amaliy ta'limni to'liq o'zlashtirgan, yetarli darajadagi kreditlarni to'plagan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'quv rejasi talablarini bajargan shaxsga "bakalavr" darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat beriladi.

1.1. Qo'llanish sohasi:

1.1.1. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi malaka talablarining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari

Quyidagilar malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari hisoblanadi:

- mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fanlar dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i (o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i va ushbu tarkibiy bo'linma vazifasini bajaruvchi bo'linma), dekanlar, kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilari;

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkiloti talabalari;

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi.

1.2.1. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* – "Huquq" ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi davlat va ho'jalik boshqaruvi organlarida, sud, prokuratura, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarida, advokatlik tuzilmalarida, notariat idoralarida, tashqi iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat idoralarida, xalqaro tashkilotlarda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq

ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida, shuningdek boshqa tijorat va notijorat tashkilotlarida, nodavlat hamda boshqa jamoat tuzilmalarida yuridik faoliyat sohaslarini qamrab oladi.

1.2.2. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

norma ijodkorligi faoliyati jarayonlari;
huquqni qo'llash amaliyoti jarayonlari;
normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi jarayonlari;
milliy va xalqaro sudlar, shuningdek xalqaro arbitraj va mediatsiya protsessi jarayonlari;
ijro ishi yuritish jarayoni;
yuridik xizmat ko'rsatish jarayonlari;
notarial harakatlarni amalga oshirish jarayonlari;
xalqaro tashkilotlar va boshqa tashkilotlarda yuridik faoliyatni amalga oshirish jarayonlari;
huquqni muhofaza qilish organlarning ish faoliyati jarayoni.

1.2.3. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60420100–*Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

tashkiliy-boshqaruv hamda axborot-tahliliy faoliyatida:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi, sud, prokuratura, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, advokatlik tuzilmalarida, shuningdek boshqa tijorat va notijorat tashkilotlar hamda xalqaro tashkilotlarda zimmasiga yuklangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlarni samarali tashkil etish;

- huquqiy bilim va ko'nikmalari hamda mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish va to'g'ri yo'lga qo'yish;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash sohasida sifatni boshqarish;

- kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida qarorlar qabul qilish hamda ularning muqobillarini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshqaruv, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash sohaslarida foydalana olish;

qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va huquqni qo'llash amaliyotini samarali yo'lga qo'yish.

ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot muassasalarini va markazlarda huquq sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- huquq sohasidagi milliy va xorijiy fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish va tizimlashtirish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari qiyosiy tahlilini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

2. 60420100 – *Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

Bakalavrlarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar qo'yiladi:

- dunyoqarash va tahliliy fikrlash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi;
- davlat va jamiyat hayotining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- siyosiy jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, davlat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda, hayotda va o'z kasbiy faoliyatida foydalana olishi hamda huquq normalarini sharhlashni bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- o'z ustida tizimli ishlash va o'qib-o'rganish natijalari asosida soha bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- chet tilini B2 va undan yuqori darajada bilish, jumladan tinglab tushunishi (Listening), o'qishi (Reading), yozishi (Writing), gapirishi (Speaking);
- normativ-huquqiy hujjatlarni izlab topishi, milliy va xalqaro huquqiy axborot qidiruv tizimlari bilan ishlay olishi;
- normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini tushunishi, ularni sharhlashi va qo'llay olishi;
- normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar, bitimlar va protsessual hujjatlar loyihalarini tayyorlashi va ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazishi;
- huquq prinsiplarini, jumladan adolat va huquq ustuvorligi prinsiplarini amaliy hayotda to'g'ri qo'llay olishi;
- muammoli vaziyatlarda huquqiy yechimlar taklif qilishi, jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy maslahatlar berishi;
- soha bilan bog'liq muammo va keyslarni aniq va detalli yechishi, biznes faoliyatini huquqiy ta'minlash bilan bog'liq ishlarni samarali tashkil qila olishi;
- huquqiy muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida sohaviy huquqiy asoslarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishi;
- inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya qilish madaniyati bilan uyg'unlashgan yuksak ma'naviy, psixologik, tahliliy va kasbiy sifatlarga ega bo'lishi;
- sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini anglab yetishi, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga hissa qo'sha olishi;
- o'z faoliyatida akademik halollik talablariga rioya etishi, o'zganing intellektual natijalari o'zlashtirmaslik, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlariga qat'iy rioya etishi;
- huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lishi, yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini samarali tashkil qila olishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- kasbiy sohaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

- milliy va xalqaro huquq normalarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, prokuratura, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda turli boshqa tashkilotlarning yuridik xizmatida qo'llash;

- prokuror nazorati hujjatlari loyihalarini tayyorlay olish;

- sudgacha talabnoma-da'vo ishlarini yuritishi va shartnomaviy munosabatlarda vakillik qilishi;

- sud protsessida qatnashish, muzokaralar olib borishni tashkil etish, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)lar bilan suhbatlashish, yuridik xulosalar berish va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, milliy qonunchilikni xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilgan holda qonunchilikka takliflar tayyorlash, yuridik audit o'tkazish (due diligence);

- protsessual va boshqa hujjatlarni tuzish;

- norma ijodkorligi faoliyatida, xususan, qonun loyihalari, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarni tayyorlash hamda ularning xalqaro xuquq normalari bilan o'zaro aloqasini tahlil qila olish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

- qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash va nizoli masalalar doirasida qonun normalarini to'g'ri qo'llash;

- nizolarga nisbatan milliy va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'ri qo'llash;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tegishli lavozimlarida xizmat ko'rsatish;

- sud, prokuratura, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat yuritish;

- sud, prokuratura va tergov jarayoni bilan bog'liq hujjatlarning loyihalarini tayyorlay olish;

- sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar protsessual hujjatlarini tahlil qila olish;

- huquqiy sohada jamoada ishlay olish;

- huquqiy sohada pedagogik faoliyatni amalga oshirish;

- huquqiy sohada muloqotga kirishuvchan bo'lish;

- advokatlik tuzilmalarida jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy yordam berish;

- tashkilotlarda yuridik xizmatni ta'minlash;

- huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligi ta'minlash bo'yicha faoliyatini uslubiy va konsultativ ta'minlash;

- psixologik tayyorgarligi, huquqiy, siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirib borish, aholi va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash va o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini takomillashtirish **qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.**

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: yurist.

2.3.2. 60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4175	167
Tanlov fanlar	925	37
Malakaviy amaliyot	625	25
Yakuniy davlat attestatsiyasi	275	11

2.3.3. 60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4175	167	
1.01	HKvaM1A8	Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya/ Falsafa/Dinshunoslik	200	8	1,2
1.02	YUXT1A10	Yuristlar uchun xorijiy til	250	10	1,2
1.03	DHN1A10	Davlat va huquq nazariyasi	250	10	1,2
1.04	KONSH1A10	Konstitutsiyaviy huquq	250	10	1,2
1.05	DTIY1A5	Davlat tilida ish yuritish (Akademik yozuv)	125	5	2
1.06	DHT/RH1A7	Davlat va huquq tarixi / Rim huquqi/ O'zbekistonning eng yangi tarixi	175	7	1,2
1.07	MA'MH2A8	Ma'muriy huquq	200	8	3,4
1.08	JINH2A12	Jinoyat huquqi	300	12	3,4
1.09	FUQHI2A12	Fuqarolik huquqi I	300	12	3,4
1.10	MEHNH2A6	Mehnat huquqi	150	6	4
1.11	YUXT2A5	Yuristlar uchun xorijiy til	125	5	3
1.12	MOLH2A5	Moliya huquqi	150	6	4
1.13	FUQHII3A6	Fuqarolik huquqi II	150	6	5
1.14	JPH3A6	Jinoyat-protsessual huquqi	150	6	5
1.15	FPH3A6	Fuqarolik protsessual huquqi	150	6	5
1.16	OILAH3A5	Oila huquqi	150	6	5
1.17	IPH3A6	Xalqaro ommaviy huquq	150	6	6
1.18	KORPH3A6	Iqtisodiy protsessual huquq	150	6	6
1.19	BIZNH/KOR PH 3A10	Biznes huquqi / Korporativ huquq	200	8	5,6
1.20	MA'MSIY3A5	Ma'muriy sud ish yurituv	150	6	6
1.21	XXH4A6	Xalqaro xususiy huquq	150	6	7
1.22	KRIMKA4A5	Kriminalistika	150	6	7
1.23	JINIH4A6	Jinoyat-ijroiya huquqi	150	6	7
2.00		Tanlov fanlar	925	37	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	-	-	
		Jami	5100	204	
		Malakaviy amaliyot	625	25	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	275	11	8
		Jami	900	36	
		HAMMASI	6000	240	

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat tasnifi, kasbiy faoliyat sohalari, modul, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), klinik ta'lim, kredit, yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kasbiy faoliyat obyekti, o'quv dasturi, soha mutaxassisligi, o'qib-o'rganish natijalari, huquqiy tizim, sud protsessi, muzokaralar, yuridik xulosalar, tahliliy ma'lumotlar, yuridik audit (due diligence), huquq normalarini sharhlash, huquqni qo'llash amaliyoti, qonuniylik, huquq ustuvorligi, huquq-tartibot, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquq normalari, huquq shakllari, huquq ijodkorligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, psixologik tayyorgarlik.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLDI:



Toshkent davlat yuridik universiteti

Rektor v.v.b.

I. Rustambekov

I. Rustambekov


2023-yil " " "

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi

Direktor



Sh. Yakubov

2023-yil " " "

Vazir
o'rinbosari



Sh. Rabiye

Sh. Rabiye

2023-yil " " "

M.O'.

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi
Oliy Sudi

Rais

o'rinbosari


H. Turajonov

2023-yil " " "

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Boshliqning birinchi
o'rinbosari



Y. Kolenko

2023-yil " " "

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Advokatlar palatasi



Rais v.v.b.

Sh. Sadikov

2023-yil " " "

M.O'.

Toshkent davlat yuridik universiteti 60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarini ishlab chiquvchi va asosiy kadrlar iste'molchisi o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b. I.Rustambekov, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri o'rinbosari Sh.Rabiyev birgalikda Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablarining mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha).

Malaka talablari O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni 34-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar” O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 35-2021-son buyrug'i (hisob raqami 43, 27.10.2021 y.), oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asosan ishlab chiqilgan.

Mazkur malaka talablari ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat yuridik
universiteti rektori v.v.b.**



**O'zbekiston Respublikasi
Adliya vaziri o'rinbosari**



I.Rustambekov

Sh.Rabiyev